

KORXONALARDA KREDIT OPERATSIYALAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

Mo'ydinov Ozodbek Olimjonovich
ADU "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchi
Qosimova Ziyodaxon Hakimovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarni kredit operatsiyalari hisobi haqida fikrlar yuritilgan. Kreditning mohiyati haqida so'z ketgan. Mamlakatimizda kreditlash siyosatiga qaratilayotgan e'tibor haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kredit, kredit operatsiyalari, xo'jalik yurituvchi subyekt, likvidlilik, tijorat banki, mustaqil baholovchi (korxonalar) firma.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini sog'lomlashtirish hamda ular faoliyatida kredit operatsiyalari hisob-kitobi va holatlari asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir yoki qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilishi, uning qarz beruvchi bank oldidagi majburiyatlari deb e'tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot o'rganish jarayonida xorijlik olimlardan: I.Arinushkin, M.I.Bakanov, L.E.Basovskiy, D.Bliss, B.Barngolts, N.P.Lyubushin, E.I.Maydanchik, A.Sh.Margulis, M.V.Melnik, A.I.Muravev, E.V.Negashev, N.A.Nikiforova, A.Yu.Petrov, V.I.Petrova, G.V.Savitskaya, S.K.Tatur, V.I.Sambrovskiy va O'zbekistonlik olimlardan N.A.Xan, S.X.Abdulyatipov, I.T.Abdukarimov, Yo.Abdullayev, A.T.Ibragimov, A.V.Vaxobov, M.Q.Pardayev, M.Yu.Raximov, A.Usanov, N.F.Ishonqulov, B.J.Xakimov, A.A.Abdug'aniyev, U.A.Nurmanov, V.V.Ergashbayev, Z.N.Qurbonov va Sh.U.Xaydarovlarning asarlari va tadqiqotlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Korxonalarning bankdan kredit olishi bu xo'jalik operatsiyalari sifatida e'tirof etiladi, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishiga qodirligiga qarab bank kreditlari ajratiladi.

Kuzatuv jarayoni esa xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini

o'tkazish, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlardir.

Korxonalar iqtisodiy faoliyatida albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga tadbirkorlarda doimo ham mablag' yetarlicha bo'lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlarning biznes hayotini kuzatish shuni ko'rsatadiki, faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo'lga qo'yiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan naf ko'radilar.

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko'rsatkichlarni o'rganilishini xarakterlash lozim. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. to'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyentlari;
2. ish aktivligi koeffitsiyentlari;
3. moliyaviy leveridj koeffitsiyentlari;
4. rentabellik koeffitsiyentlari;
5. qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning qaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslari kechiktirilgan to'lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda qaytariladi.

Agar to'lovlar va foizlar o'z vaqtida amalga oshirilsa, ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: mijozning bozordagi obro'si; mijozning xarakteri; kreditning maqsadli yo'nalishlari; ta'minlanganligi (garov); kreditni qaytarish shartlari.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida, "6S", "CAMPARI", "RARTS" modellaridan keng foydalaniladi.

Kreditga layoqatlilikni baholashdagi xalqaro modellar va ularning tasnifi

Belgilar	Nimani anglatishi	Tavsif
"6 C" usuli		
C	Character	Reputatsiya, mijozning xarakteri
C	Capacity	Imkoniyatlar
C	Cash	Naqdlik
C	Collateral	Kafolatlik
C	Conditions	Shartlar
C	Control	Nazorat

“ C A M P A R I ” usuli		
C	Sharacter	Reputatsiya, mijozning xarakteri
A	Ability	Kreditni qaytarishga qobilligi
M	Margin	Marja, daromadliligi
P	Purpose	Kreditlarning maqsadli yo‘nalishlari
A	Amount	Kredit miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
I	Insurance	Ta‘minlanganligi, kreditni qaytmaslik riski
“ P A R T S ” usuli		
P	Purpose	Kreditning maqsadligi
A	Amount	Qarz miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
T	Term	Kredit berish muddati
S	Security	Kreditni to‘lashni kafolatlash

Berilgan kreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar uchun zaxiralar bankning xarajatlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zaxiralar qarzdorning moliyaviy holatini, berilgan kreditning ta‘minlanganligi va qaytmaslik risklarini baholash natijasida yaratiladi.

Bank kredit siyosati – joriy yil mobaynida bank kredit portfelini shakllantirish, xususan, kreditlash borasidagi bank faoliyatining Markaziy bankning kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlari talablaridan kelib chiqib, kreditlash tamoyillariga mosligini ta‘minlash, kredit portfelini samarali boshqarish, kredit berish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni baholash hamda ularni minimallashtirish, kredit monitoringi o‘tkazish va uni so‘ndirish jarayoni bilan bog‘liq amallarni belgilash, kredit portfelini diversifikatsiyalash hamda bank foiz siyosatini yuritish bilan bog‘liq tadbirlar yig‘indisidan iboratdir.

Bank kredit siyosatining asosiy maqsadi – mavjud resurslarni iqtisodiyotning real sektorini kreditlar va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga yo‘naltirish hisobiga yuqori daromad olinishini ta‘minlashga qaratilgan.

Bank kreditlari odatda aktiv qiymatining 80% bilan chegaralanadi. Xuddi shuningdek, bank kreditlarini berishda dastlab mustaqil baxolovchi (tashkilot) firmalar tomonida baxolangan garovni hozirgi bozor bahosining summasini ma‘lumot uchun qabul qiladi va o‘zining bank ekspertlari tomonidan 70-80% da qabul qiladi. Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma tomonidan 80% da qabul qilingan garov ta‘minoti predmetining baxosi sifatida belgilanib, tijorat bankiga 80 % qiymatda garovga olinadi.

Bu quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bozor bahosi 100 % baxoladi desak, **1(X)** - bu yerda garov ta`minotini Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bergan qiymat.

$$\mathbf{1(X) \rightarrow 100\% = 100\%.$$

Tijorat bank ekspertlari esa, garov taminot qiymatini $X \rightarrow 80\%$ ga qabul qiladi. **2(X)** – bu yerda garov ta`minotini **tijorat banki ekspertlari** bergan qiymat.

Ya`ni: $\mathbf{1(X) \rightarrow 100\%}$ $\mathbf{2(X) = \frac{1(X)*80}{100} = 0.8}$ $\mathbf{2(X) \rightarrow 80\%}$

0.8 kayfitsent qiymat kelib chiqadi va bank kredit shartnomasi bo‘yicha garovga qo‘yilayotgan garov ta`minotining qiymati sifatida qabul qilinadi va bank riskini hisobga olgan xolda shartnomaga qabul qilgan qiymatni 80 % i miqdirida kredit ajratadi. Bunda:

2(X) – bu yerda garov ta`minotini **tijorat banki ekspertlari** bergan qiymat. 0.8 kayfitsent qiymat.

3(X) - Ajratilishi mumkin bo‘lgan kredit miqdori.

$$\mathbf{2(X) \rightarrow 100\%} \quad \mathbf{3(X) = \frac{2(X)*80}{100} = 0.8} \quad \mathbf{yoki 0.8 * 0.8 =}$$

0.64

$$\mathbf{3(X) \rightarrow 80\%}$$

Bundan shu kelib chiqadiki, tijorat banklari Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bergan qiymatning 0.64 kayfitsentida yoki 64 % ini bank krediti qilib beradi.

Korxonalar o‘z mablag‘lari manbalarini tahlil qilishi ularning to‘lov layoqatiga baho berishda muhim o‘rin tutadi. Ularning mulki va mablag‘larining kelib chiqish manbalari balansning passivida ko‘rsatiladi. Bular o‘ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o‘zaro taqqoslash asosida buxgalteriyabalansi likvidligiga baho beriladi. Bunda quyidagi mezonga tayaniladi.

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o‘zaro taqqoslash mezonlari

Koeffitsiyent nomi	I-sinf	II-sinf	III-sinf
Mutlak ligvidlik koeffitsiyenti	$K1 \geq 0,25$	$0,25 > K1 \geq 0,05$	$0,05 > K1$
Oralik koplash koeffitsiyenti	$K2 \geq 1,5$	$1,5 > K2 \geq 0,50$	$0,50 > K2$
Joriy ligvidlik koeffitsiyenti	$K3 \geq 2$	$2 > K3 \geq 1$	$1 > K3$
Moliyaviy mustakillik koeffitsiyenti	$K4 \geq 0,6$	$0,6 > K4 \geq 0,3$	$0,3 > K4$
O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti	$K5 \geq 0,5$	$0,5 > K5 \geq 0,10$	$0,10 > K5$

Tovar-moddiy zaxiralarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti	$K6 \geq 1$	$1 > K6 \geq 0,5$	$0,5 > K6$
Aktivlarni rentabelligi koeffitsiyenti	$K7 \geq 0,05$	$0,05 > K7 \geq 0,01$	$0,01 > K7$
Sotish rentabelligi koeffitsiyenti	$K8 \geq 0,10$	$0,10 > K8 \geq 0,02$	$0,02 > K8$

K1- Mutlak likvidlik koeffitsiyenti

K2- Oralik koplash

koeffitsiyenti

K4- Moliyaviy

K3- Joriy likvidlik koeffitsiyenti

mustakillik koeffitsiyenti

K5- O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

K8- Sotish rentabelligi

K6- Tovar-moddiy zaxiralarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti

K7- Aktivlarni rentabelligi koeffitsiyenti

koeffitsiyenti

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo'yilgan sakkizta shartdan K1, K2, K3, K4, K5, K6, K7, va K8 koeffitsientlari likvidliklik darajalarini bildiriradi. YA'ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini qoplashga yetish va yetmasligini anglatadi. Bu esa korxonada balansning likvidlikka darajasidan dalolat beradi.

Balansning likvidligi va to'lovga layoqatligini tahlil qilish ehtiyoji korxonada moliyaviy mablag'larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to'lovga layoqatligini aniqlash zaruriyati munosabati bilan yuzaga keladi. Balansning likvidligini tahlil qilishda korxonaning to'lash qobiliyati ham baholanishi zarur.

Bank amaldagi qoidalarga muvofiq tasdiqlangan Kreditlarni monitoring qilish tartibiga binoan qarz oluvchi faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomini tahlil qiladi va ma'lumotlar bazasini vujudga keltiradi.

Mamlakat hududidagi va chet eldagi banklardan olingan qisqa muddatlik kredit bo'yicha bank bilan bo'ladigan hisob-kitoblar analitik hisobi olingan qarzlarning turlari bo'yicha 38-qaydnomada, sintetik hisobi esa 4-jurnal-order yordamida yuritiladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari olinganda 5110-"Hisob-kitob schyoti", 6010-"Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" va boshqa schyotlar debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari olish va akkreditiv qo'yish uchun qisqa muddatli kreditlar rasmiylashtirilganda 5510-"Akkreditivlar", 5520-"Chek daftarchalari" schyotlari debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari va ishlatilmay qolgan akkreditivlarning qoldig'i hisoblab o'tkazish yo'li bilan yoki hisob-kitob schyotidan qisqa muddatli kreditlarni qaytarishda 6810-schyotning debeti va 5110, 5210, 5220, 5510, 5520 va 5530-

schyotlar krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Bir yildan oshmagan muddatda to'lanadigan veksellar va boshqa qarz majburiyatlarini hisobga olishga doir muomalalar bo'yicha bank bilan hisob- kitoblar 6810-“Qisqa muddatli bank kreditlari” schyotining alohida analitik schyotida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi va xorijdagi qarz beruvchilardan 12 oydan oshmagan muddatga olingan qarzlar 6820-“Qisqa muddatli qarzlar” schyotida hisobga olinadi. Qarz beruvchilardan (banklardan tashqari) olingan mablag'lar kirimi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar debeti va 6820-“Qisqa muddatli qarzlar” schyotining krediti bo'yicha aks ettiriladi. Olingan qisqa muddatli qarzlar qaytarilganda esa 6820-“Qisqa muddatli qarzlar” schyoti debetlanadi va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. 6820-“Qisqa muddatli qarzlar” schyoti bo'yicha analitik hisob qarz beruvchilar va qarzlarni qaytarish muddatlari bo'yicha yuritiladi.

Qisqa muddali bank kreditlari hisobini hisobga olish uchun quyidagi qaydnomadan foydalaniladi. Ushbu qaydnoma xo'jalik openatsiyalarini qayd etish jurnali va boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha operatsiyalar aks ettirilishi

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1	Kredit olish aks ettiriladi (kredit qarz oluvchi korxonaning hisob-kitob hisobvarag'iga kelib tushdi)	5110	6810
2	Qarz oluvchi korxonaning mol etkazib beruvchi (pudratchi)ga bo'lgan qarzining kredit bilan to'lanishi aks ettirildi	6010	5110
3	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
4	Kredit va foizlarni to'lanishi aks ettirildi	6810 6920	5110

Agar kreditni qaytarishni ta'minlash bo'yicha moddiy boyliklar garov sifatida rasmiylashtirilsa, ushbu boyliklar qiymatiga balansdan tashqari 009- “Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – berilgan” hisobvarag'i bo'yicha yozuv qayd etiladi.

Agar kreditning ta'minoti sifatida uchinchi shaxs (boshqa bank yoki boshqa korxonaning kafolati rasmiylashtirilsa, unda olingan kafolatlar summasiga balansdan tashqari 008-“Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – olingan” hisobvarag'ida yozuv qayd etiladi.

Kredit shartnomasida belgilangan vaqtda to'lanmagan kreditlar va ular bo'yicha foizlar alohida hisobga olinishi lozim. Agar kredit shartnomasi muddati qarz oluvchi korxonaga va bank tomonidan kelishilib, kredit shartnomasiga tegishli qo'shimcha rasmiylashtirilgan holda uzaytirilsa, kredit muddati o'tgan hisoblanmaydi.

Фойдланилган адабиётлар рo‘yxати:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1996 yil 29 avgustda 257-1-sonli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarori bilan 1997 yil 1 martdan kuchga kiritilgan (o‘zgarishlar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 1997 yil 24 aprelda 391-6-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan (o‘zgarishlar bilan).
3. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan.
4. "Auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil 26 mayda qabul qilingan.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari" (o‘zgarishlar bilan).
6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 9 sentabrda 103-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schetlar rejasi".
7. Muydinov B.N. Moliyaviy hisob. Darslik. –A.: Step by step print, 2024. – 583 b.
8. A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov. Buxgalteriya hisobi: Darslik /; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
9. Qo‘chqarov SH. "AUDIT" fanidan O‘quv yslubiy majmua. 2022. 791 b.